



KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNING KRIMINOLOGIK VA VIKTIMOLOGIK PROFILAKTİKASINI TAKOMILASHTIRISH MASALALARI

Xudaybergenov Baxram Kuani'shbaevich

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-0173-5442

e-mail: xudaybergenovbaxram550@gmail.com

Habibullayev Dalerbek Baxtiyor o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompayens nazorati mutaxassisligi magistranti, TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey o'qituvchisi

ORCID: 0009-0004-2513-458X

e-mail: habibullayevdalerbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17587575>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 08-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 12-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

*korrupsiya, kriminologik
profilaktika, viktimologik
profilaktika, huquqiy
madaniyat, manfaatlar
to'qnashuvi, "passiv
jabrlanuvchi sindromi", huquqiy
immunitet, integratsiyalashgan
profilaktika modeli.*

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada korrupsiyaviy jinoyatlarning kriminologik va viktimologik profilaktikasini takomillashtirish masalalari har tomonlama tahlil qilinadi. Tadqiqot predmeti korrupsiyaviy huquqbuzarliklarning sabablari va ularni rag'batlantiruvchi ijtimoiy-psixologik hamda institutsional omillar tizimini, shuningdek, jabrlanuvchi subyektlarning xulq-atvor xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston sharoitida korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan kompleks kriminologik va viktimologik mexanizmlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Mavzuning dolzarbligi korrupsiyaning ijtimoiy-huquqiy oqibatlari, huquqiy madaniyatning pastligi, manfaatlar to'qnashuvi institutining to'liq ishlamasligi hamda xalqaro standartlar bilan milliy tizim o'rtasidagi tafovutlar bilan izohlanadi. Tadqiqot metodologiyasi dialektik, qiyosiy-huquqiy, empirik, sotsiologik va viktimologik tahlil usullariga tayangan bo'lib, 2020-2024-yillar statistik ma'lumotlari, so'rovnomalarda asosida amalga oshirilgan. Olingan natijalar korrupsiyaning tizimli determinantlarini, "passiv jabrlanuvchi sindromi" fenomenining ijtimoiy ildizlarini hamda korrupsiyaviy xavf yuqori bo'lgan sohalarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari korrupsiyaning profilaktikasiga doir davlat siyosatini takomillashtirish, fuqarolarda huquqiy

immunitetni shakllantirish va "xabar beruvchi" himoyasi tizimini rivojlantirishda qo'llanishi mumkin. Xulosa sifatida korrupsiyaga qarshi kurashda kriminologik va viktimologik yondashuvlarni integratsiyalashgan profilaktika modeli asosida uyg'unlashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanish davrida korrupsiya nafaqat alohida davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, balki butun xalqaro hamjamiyatning barqarorligiga tahdid solayotgan murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda. Korrupsiyaning ildizlari davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, siyosat, ta'lim va fuqarolik jamiyati tizimlarining turli bo'g'inlariga chuqur singib ketgan bo'lib, uning oqibatlari ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishi, davlat institutlariga nisbatan ishonchning pasayishi va iqtisodiy samaradorlikning susayishi kabi jiddiy xavflarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, korrupsiyaviy jinoyatlarni samarali bartaraf etish masalasi huquqshunoslik fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy kriminologik tadqiqotlarda korrupsiya faqat huquqbuzarlik yoki shaxsiy manfaatni ko'zlovchi xatti-harakat sifatida emas, balki ijtimoiy muhit, boshqaruv tizimi va axloqiy qadriyatlar o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir mahsuli sifatida baholanadi [1, 200-b; 2, 2284-2293-b; 3, 450-460-b]. Shu nuqtai nazardan, korrupsiyaviy jinoyatlarning kriminologik profilaktikasi — ularning sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, ijtimoiy nazorat mexanizmlarini mustahkamlash hamda korrupsion xatti-harakatlarni sodir etishga moyil shaxslarning mazkur jinoyatlarni sodir etishga undagan omillarni bartaraf etish jarayonini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, korrupsiyaviy jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi ham alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki korrupsion munosabatlarda jabrlanuvchi (viktim) subyektlarning huquqiy ongi, ularning ijtimoiy faolligi hamda o'zlariga nisbatan qilinayotgan tamagirlikka qarshi tura olmasligi ushbu jinoyatlarning kengayish yoki qisqarish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, viktimologik yondashuv korrupsiyaga qarshi kurashda yangi paradigmani shakllantiradi — ya'ni, faqat jinoyatchiga qarshi kurashish emas, balki potensial jabrlanuvchining huquqiy immunitetini mustahkamlashni ham o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash sohasida keng ko'lamli institutsional va huquqiy islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, jinoyatlarning oldini olish mexanizmlarini kriminologik va viktimologik jihatdan uyg'unlashtirish zarurati hanuzgacha dolzarbdir. Shu ma'noda, ushbu tadqiqot korrupsiyaviy jinoyatlarning kriminologik va viktimologik profilaktikasini takomillashtirish masalalarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili (Literature Review)

Korrupsiyaviy jinoyatlarning kriminologik va viktimologik profilaktikasiga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ushbu yo'nalish ko'plab davlatlarda davlat siyosati, huquqshunoslik va ijtimoiy fanlar kesishgan nuqtasida faol tadqiq qilinmoqda. Ilmiy manbalarda korrupsiya hodisasi ko'pincha ijtimoiy nazoratning zaiflashuvi, davlat boshqaruvida shaffoflik yetishmasligi hamda shaxsning axloqiy-psixologik qadriyatlaridagi og'ishlar natijasi sifatida talqin etiladi.

Masalan, A.Boly va R.Gillanders korrupsiyani “institutSIONAL ishonch inqirozining natijasi” sifatida izohlaydi va jinoyatning ildizini shaxsiy manfaat bilan ijtimoiy javobgarlik o‘rtasidagi nomutanosiblikda ko‘radi [4, 15-30-b]. Shunga o‘xshash yondashuvni B.Rothstein ham ilgari surib, korrupsiyaga qarshi kurashda faqat jazolash choralari emas, balki ijtimoiy nazorat tizimini mustahkamlash ham muhim omil ekanligini ta’kidlaydi [5].

Kriminologik yondashuvlar ichida M.Findlay tomonidan ishlab chiqilgan “korrupsiya modeli” alohida o‘rin tutadi. U korrupsiyani “Monopoliya + Diskretsiya – Hisobdorlik = Korrupsiya” formulasi orqali tushuntiradi [6, 73-83-b]. Mazkur model korrupsiyaning sabablari nafaqat individual, balki tizimli darajada ham mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bois, kriminologik profilaktika faqat jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan emas, balki tizimdagi zaif bo‘g‘inlarga qarshi qaratilishi zarurligini ta’kidlaydi.

Viktimologik yo‘nalishda esa tadqiqotchilar xususan, S.Alatas va E.Uslaner korrupsiyaga nisbatan befarqlik va “moslashuvchanlik sindromi”ni ijtimoiy jabrlanishning shakli sifatida baholaydilar [7; 8, 302-315-b]. Ularning fikricha, korrupsion muhitda fuqarolarning korrupsiya holatlariga nisbatan bag‘rikenglik namoyon etishi jamiyatning “ommaviy jabrlanish” holatiga olib keladi. Shu bois, viktimologik profilaktika — bu faqat jabrlanuvchini himoya qilish emas, balki korrupsiyaga qarshi ijtimoiy immunitetni shakllantirish tizimidir.

O‘zbekiston olimlari orasida ham mazkur mavzuda muhim izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, S.S.Niyozova korrupsiyaviy jinoyatlarning kriminologik omillarini tahlil qilib, ularni ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, boshqaruvdagi noaniqlik va ma’naviy qadriyatlar inqirozi bilan bog‘laydi [9]. Shuningdek, B.Iskandarov korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy dasturlar samaradorligini o‘rganar ekan, huquqiy islohotlar bilan bir qatorda profilaktikaning sotsiologik va psixologik mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi [10].

Xalqaro tajribada korrupsiyaning oldini olishga oid eng muhim hujjatlardan biri — BMTning 2003-yilgi Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi [11]. Ushbu hujjat korrupsiyaga qarshi kurashni kompleks tarzda — profilaktika, jinoiy javobgarlik, xalqaro hamkorlik va aktivlarni qaytarish mexanizmlari orqali amalga oshirishni belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyaga qo‘shilgan bo‘lib, milliy qonunchilikni uning normalariga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Yevropa Kengashining “Korrupsiyaga qarshi davlatlar guruhi” (GRECO) tomonidan tayyorlangan hisobotlarda ham korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligi faqat jazolashga emas, balki profilaktik choralarni tizimli qo‘llashga bog‘liqligi qayd etiladi [12]. Ayniqsa, korrupsion xavf zonalarini (tavakkalchiliklarni) aniqlash, davlat xizmatida axloq kodekslarini joriy etish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish muhim deb topilgan.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olishda kriminologik va viktimologik yondashuvlarning integratsiyasi eng istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Chunki jinoyatni keltirib chiqaruvchi sabablar va uni sodir etilishiga imkon beruvchi shart-sharoitlar o‘zaro bog‘liqdir. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurashning zamonaviy modeli tizimli tahlilga, institutsional ochiqlikka va fuqarolik jamiyatining faolligiga tayangan holda shakllanishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi (Methodology)

Mazkur tadqiqot korrupsiyaviy jinoyatlarning kriminologik va viktimologik profilaktikasini takomillashtirish masalalarini chuqur tahlil etishga qaratilgan bo‘lib, u kompleks, tizimli va tahliliy yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda korrupsiya

hodisasini ijtimoiy, huquqiy va psixologik jihatdan o'rganishga imkon beruvchi zamonaviy ilmiy metodlar qo'llanildi.

Birinchidan, dialektik metod asosiy ilmiy tayanch sifatida tanlandi, chunki korrupsiya ijtimoiy hayotning dinamik hodisasi bo'lib, u siyosiy, iqtisodiy va axloqiy omillar o'zaro ta'sirida shakllanadi. Shu sababli, korrupsiyaviy jinoyatlar sabablari, ularni keltirib chiqaruvchi determinantlar hamda profilaktika mexanizmlari o'zgaruvchan ijtimoiy muhit kontekstida tahlil qilindi.

Ikkinchidan, qiyosiy-huquqiy tahlil metodi orqali BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003), Yevropa Kengashining GRECO dasturi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ning korrupsiyaga qarshi tamoyillari hamda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar o'rganildi. Ushbu metod xalqaro standartlar bilan milliy qonunchilik o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlash imkonini beradi.

Uchinchidan, empirik tahlil metodi asosida so'nggi besh yilda (2020–2024-yillar) korrupsiyaviy jinoyatlar bo'yicha qo'zg'atilgan jinoyat ishlari, ularning tuzilishi va dinamikasi o'rganildi. Tahlilda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotlaridan foydalanildi. Natijada korrupsiyaviy jinoyatlar ko'p uchraydigan sohalar — davlat xaridlari, soliq tizimi, sog'liqni saqlash va ta'lim tizimi misolida amaliy xulosalar chiqarildi.

To'rtinchidan, sotsiologik va psixologik metodlar orqali jamiyatda korrupsiyaga nisbatan munosabat, fuqarolarning korrupsion bosimga qarshi turish darajasi, axloqiy qadriyatlarining o'zgarishi va huquqiy ong darajasi tahlil qilindi.

Beshinchidan, viktimologik tahlil metodi yordamida korrupsion munosabatlarda jabrlanuvchi sifatida ishtirok etuvchi shaxslarning huquqiy himoyasi, ularning xabardorlik darajasi va huquqiy immunitetini oshirish mexanizmlari o'rganildi. Bu yondashuv korrupsiyani faqat jinoyatchi nuqtayi nazaridan emas, balki jabrlanuvchining ijtimoiy va huquqiy holatini hisobga olgan holda tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari korrupsiyaviy jinoyatlarning kriminologik va viktimologik profilaktikasini takomillashtirish masalalarini tizimli o'rganish asosida bir qator muhim ilmiy-amaliy xulosalarni aniqlash imkonini berdi.

Birinchidan, korrupsiyaviy jinoyatlarning kriminologik tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning yuqori darajada saqlanib qolishiga asosan tizimli va institutsional omillar sabab bo'lmoqda. Xususan, davlat boshqaruvida hisobdorlik va shaffoflik mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi, manfaatlar to'qnashuvini tartibga soluvchi huquqiy normalarning amalda samarali qo'llanilmasligi hamda xizmat mavqeyidan shaxsiy foyda olish imkoniyatlarining mavjudligi korrupsiyaviy jinoyatlar uchun qulay ijtimoiy muhitni shakllantirmoqda.

Ikkinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida profilaktikaning kriminologik mexanizmlari yetarlicha tizimlashtirilmaganligi aniqlandi. Amaldagi chora-tadbirlar, asosan, korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni jazolashga yo'naltirilgan bo'lib, jinoyatning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga qaratilgan tizimli yondashuvlar yetishmaydi. Natijada, korrupsiyaviy xatti-harakatlarning ildizlari – boshqaruvdagi byurokratik to'siqlar, axloqiy mas'uliyatning sustligi va xizmat intizomining zaifligi kabi omillar to'liq bartaraf etilmagan.

Uchinchidan, korrupsiyaviy jinoyatlarning viktimologik jihatlarini tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, ushbu jarayonlarda “passiv jabrlanuvchi sindromi” keng tarqalgan. Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari ko‘p hollarda korrupsion talab yoki bosimga duch kelganda yoxud tamagirlikka uchraganida ularni huquqiy mexanizmlar orqali hal etish o‘rniga, muqobil yo‘llarni (poraxo‘rlik yoki g‘ayriqonuniy kelishuv) tanlashga moyillik bildiradilar. Bu esa korrupsiyani ijtimoiy jihatdan normal holat sifatida qabul qilish xavfini kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, empirik tahlil shuni ko‘rsatdiki, 2020–2024-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasida aniqlangan korrupsiyaviy jinoyatlarning katta qismi davlat boshqaruvi va xo‘jalik tizimlarida, shuningdek, sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohasida, qolgan qismi esa huquqni muhofaza qilish organlarida sodir etilgan. Ushbu ma‘lumotlar korrupsiya eng ko‘p uchraydigan “risk zonalarini” aynan davlat xaridlari, sog‘liqni saqlash, madaniyat, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, qurilish, ilmiy daraja olish va avtomobil yo‘llari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Beshinchidan, o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari ham korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Xususan, 2024-yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda BMT Taraqqiyot dasturi hamkorligida “Korrupsiyaga qarshi kurashda korrupsiya haqida xabar berishning o‘rni va ta‘siri” mavzusida so‘rovnoma o‘tkazilgan [13]. So‘rovda ishtirok etgan respondentlarning 74,0 foizi korrupsiya holatlari haqida xabar berishga va 82,2 foiz elektron platforma yoki mobil ilova orqali xabar berishga tayyorligini bildirgan. Lekin, korrupsiya holatlari haqida xabar bermaslikning asosiy sabablari sifatida korrupsiyadan o‘zlari manfaatdorligi (19,8%) va kimga murojaat qilishni bilmasligini (20,4%) qayd etishgan. Shu bilan birga, respondentlarning 13,8 foizi minnatdorlik sifatida sovg‘a berishni oddiy hol deb hisoblasa, 7,4 foizi esa bunday harakatlarni korrupsiya holati deb hisoblamasligini ta‘kidlagan.

Oltinchidan, korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olishda viktimologik profilaktika mexanizmlarining rivojlantirilishi zarurligi aniqlangan. Jumladan, korrupsion bosim ostidagi shaxslarni huquqiy jihatdan himoya qilish tizimini takomillashtirish, ularning anonim murojaatlarini qabul qilish mexanizmini kuchaytirish hamda korrupsion holatlar haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilish kafolatlarini amalda qo‘llash talab etiladi.

Yettinchidan, xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatdiki, BMT, OECD va GRECO standartlari asosida korrupsiyaga qarshi kurashishda “integratsiyalashgan profilaktika modeli”ni joriy etish eng samarali yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur model kriminologik hamda viktimologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi.

Muhokama (Discussion)

Mazkur tadqiqotimiz natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyaviy jinoyatlarning kriminologik va viktimologik profilaktikasini takomillashtirish masalasi ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab etuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy jarayondir. Korrupsiya o‘z mohiyatiga ko‘ra nafaqat huquqbuzarlik, balki davlat boshqaruvi va jamiyatdagi ijtimoiy qadriyatlar tizimiga chuqur ta‘sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonida jinoyatni sodir etish sabablari, uni rag‘batlantiruvchi omillar hamda korrupsiyadan jabrlanuvchi subyektlarning psixologik holatini kompleks tahlil qilish zarur.

Avvalo, kriminologik yondashuv nuqtayi nazaridan, korrupsiyaviy jinoyatlarning sabablari uch asosiy guruhga ajratilishi mumkin: tizimli (institutSIONal), ijtimoiy-psixologik va shaxsiy (individual) omillar. Tadqiqotda aniqlanishicha, korrupsiyaning asosiy determinantlari

sifatida davlat boshqaruvidagi byurokratik to'siqlar, manfaatlar to'qnashuvini tartibga soluvchi normalar hamda javobgarlikning muqarrarligi prinsipi amalda to'liq ishlamasligi va jamoatchilik nazoratining sustligi kabilarni e'tirof etilishi mumkin. Ushbu omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning har biri korrupsiyaviy xatti-harakatlarning shakllanishiga bevosita turtki beradi.

Bundan tashqari, korrupsiyaviy jinoyatlarning viktimologik tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat darajasining va huquqiy madaniyatning pastligi korrupsion muhitni yanada mustahkamlaydi [14]. Nazarimizda, korrupsiyaviy jinoyatlar kontekstida jabrlanuvchi shaxslarning aksariyatida huquqiy ong nisbatan yuqori darajada shakllangan bo'lsa-da, ularning huquqiy madaniyat darajasi yetarli emas. Boshqacha aytganda, ular pora berish yoki korrupsiyaviy munosabatlarda ishtirok etish harakati jinoyat ekanligini, bu holat jamiyatda adolat tamoyillarini buzishini va ijtimoiy tizimga zarar yetkazishini anglab yetadilar. Shu bilan birga, ularning xulq-atvori maishiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga bo'lgan utilitar xohish-istaklar bilan boshqarilgani sababli, mavjud huquqiy ong amaliy xatti-harakat darajasida o'z ifodasini topmaydi. Bunday nomuvofiqlik huquqiy ong va huquqiy madaniyat o'rtasidagi tafovutni yaqqol namoyon etadi. Natijada, shaxsda "huquqiy bilim" mavjud bo'lsa-da, u "huquqiy qadriyat" sifatida ongida mustahkamlanmagan bo'ladi. Shu sababli ham tadqiqot davomida aniqlangan "passiv jabrlanuvchi sindromi" korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini keskin kamaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday sharoitda fuqarolar korrupsiyaga qarshi faol subyekt sifatida emas, balki tizimning moslashgan ishtirokchilari sifatida shakllanmoqda. Shu sababli, korrupsiyaviy jinoyatlarning viktimologik profilaktikasi doirasida nafaqat huquqiy axborot berish, balki fuqarolarda huquqiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, ularni korrupsiyaviy vaziyatlarda faol qarshilik ko'rsatishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiyaga qarshi xalqaro huquqiy mexanizmlar tahlili ushbu sohada samarali profilaktika tizimini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy xulosalarni beradi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003) korrupsiyaga qarshi kurash siyosatida profilaktika choralari ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilganligini belgilab beradi. Mazkur xalqaro hujjatda korrupsiyani kamaytirishning asosiy vositalari sifatida davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, davlat xizmatchilari uchun axloq kodekslarini ishlab chiqish hamda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish kabi tamoyillar alohida ta'kidlangan.

"Transparency International" ma'lumotlariga asosan Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'n to'qqiz mamlakatdan o'n beshtasi (O'zbekiston ham shular jumlasidan) korrupsiyaga qarshi kurashishda turg'unlik yoki muvaffaqiyatsizlikka uchramoqda [15].

Bunga quyidagilar sabab sifatida ko'rsatilgan:

demokratik institutlar va qonun ustuvorligining zaifligi, davom etayotgan beqarorlik va tashqi bosimlar;

hukumatlar korrupsiyaga qarshi eng oddiy choralarni ham amalga oshira olmaganligi;

ko'pgina davlatlarda siyosiy moliyalashtirish, lobbizm faoliyatini oshkor qilish yoki manfaatdor mulkning shaffofligini nazorat qiluvchi qonunlar yetarli emasligi, ba'zilarida esa umuman yo'qligi;

hukumatlar katta qiymatli strategik investitsiyalarni nazorat qilishdan qochish uchun maxsus qonunchilikdan foydalanib, jamoat manfaatlarini e'tiborsiz qoldirishlari;

mintaqadagi aksariyat davlatlarda hukumatning boshqa tarmoqlar va manfaatdor guruhlariga nomaqbul ta'sir ko'rsatishi sababli yuqori darajadagi korrupsiyani ta'qib qila olmasligi;

hatto demokratik davlatlarda ham saylov jarayonlarida hukmron partiyalar noaniq moliyalashtirish va hokimiyatni qo'lga kiritish uchun qoidalarni manipulyatsiya qilishdan foydalanishlari tobora kuchayib borayotganligi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda mazkur yo'nalishlarda izchil islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, 2024-yil 6-iyunda qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-sonli Qonun manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan bo'lib, u korrupsion xavf-xatarlarni kamaytirishda muhim institutsional asos yaratdi.

Biroq, mavjud huquqiy mexanizmlar, asosan, normativ-huquqiy va tashkiliy choralar bilan cheklanib, kriminologik va viktimologik profilaktika elementlarining tizimli uyg'unlashuvi yetarli darajada ta'minlanmagan. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurashda jinoyatning sabab-omillarini tahlil qilish, shuningdek, potensial jabrlanuvchilarning huquqiy xulq-atvorini shakllantirishga qaratilgan kompleks yondashuvni rivojlantirish zarur. Mazkur integratsiyalashgan yondashuv korrupsiyaviy jinoyatlarning ijtimoiy ildizlarini bartaraf etish va jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshqa tomondan, tadqiqot natijalari korrupsiyaga qarshi kurashda axborot texnologiyalarining ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Elektron hukumat tizimlari, ochiq ma'lumotlar platformalari korrupsiyaviy jinoyatlarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, "xabar beruvchi himoyasi" (whistleblower protection) mexanizmlarini joriy etish korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishning zamonaviy vositalaridan biridir. Ayni paytda, bunday tizimlarning samaradorligi ularni qo'llovchi normativ asoslar, jamoatchilik ishonchi va anonimlik kafolatlariga bog'liq.

Shuningdek, muhokama jarayonida aniqlanishicha, korrupsiyaviy jinoyatlar profilaktikasining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Huquqiy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, halollik va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalari maktab, kollej va oliy ta'lim bosqichlaridan boshlab muntazam ravishda targ'ib etilishi kerak. Bu jarayon korrupsiyaga qarshi kurashning uzoq muddatli, barqaror ijtimoiy poydevorini yaratadi.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaviy jinoyatlarning kriminologik va viktimologik profilaktikasini takomillashtirish zamonaviy sharoitda kompleks, tizimli va integrativ yondashuvni talab etadi. Korrupsiya faqatgina huquqbuzarlik emas, balki ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy muhitga chuqur ildiz otgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, uni bartaraf etishning asosiy sharti korrupsiyaning kriminologik determinantlarini aniqlash, profilaktik mexanizmlarni institutsional mustahkamlash hamda aholi huquqiy ongi va madaniyatini oshirishdan iboratdir.

Kriminologik jihatdan qaralganda, korrupsiyaga qarshi kurashning markazida jinoyatning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish hamda davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash turgan bo'lishi lozim. Shu bilan birga,

korruptsiya xavf-xatarlarni erta aniqlash va profilaktika choralarini kuchaytirish orqali korruptsiyaviy jinoyatlarning oldini olish mumkin.

Viktimologik yondashuv esa korruptsiyaga qarshi kurash tizimida inson omilining ahamiyatini oshiradi. Tadqiqotda aniqlanishicha, korruptsiya munosabatlarda ishtirok etuvchi jabrlanuvchilarning aksariyatida huquqiy ong shakllangan bo'lsa-da, ularning huquqiy madaniyati yetarli darajada rivojlanmagan. Shu sababli, fuqarolarda huquqiy immunitetni shakllantirish, korruptsiyaviy vaziyatlarga nisbatan murosasizlik madaniyatini rivojlantirish va ularni axloqiy-huquqiy javobgarlikka yo'naltirish korruptsiyaning ijtimoiy ildizlarini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro huquqiy mexanizmlar, xususan BMTning Korruptsiyaga qarshi konvensiyasi (2003), korruptsiyaga qarshi profilaktikaning ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan. O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning (O'RQ-931) qabul qilinishi, korruptsiyani nazorat ostiga olishda muhim qadam bo'ldi. Biroq, bu mexanizmlarni kriminologik va viktimologik asoslarda tizimlashtirish hamda ularning o'zaro uyg'unligini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Demak, korruptsiyaviy jinoyatlarning samarali profilaktikasi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, axloqiy va psixologik omillar uyg'unligida shakllanishi lozim. Shu yo'sinda, korruptsiyaga qarshi kurash tizimini takomillashtirish — huquqiy institutlarning mustahkamlanishiga, fuqarolik jamiyati ishtirokining ortishiga va eng muhimi, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligi qadriyatlarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati (references):

1. Lukashevych S. Y. Crime and Corruption Prevention Objects //No. 20 Theory & Prac. Juris. – 2021. – T. 2. – C. 200.
2. Darmawansyah A. People's Role as Victims in State Financial Corruption //Indonesian Journal of Multidisciplinary Science. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 2284-2293.
3. Балясов Д. С., Гордополов Ю. В., Петрова В. Ю. Виктимологическая профилактика коррупции //Вопросы российского и международного права. – 2022. – Т. 12. – №. 9-1. – С. 450-460.
4. Boly A., Gillanders R. Corruption, institutional trust and legitimacy: A vicious circle //The political economy of corruption. – Routledge, 2023. – C. 15-30.
5. Rothstein B. Controlling corruption: The social contract approach. – Oxford University Press, 2021.
6. Findlay M. The Ambiguity of Accountability: Relationships of corruption and control //Australian Quarterly. – 1993. – Т. 65. – №. 2. – C. 73-83.
7. Alatas S. H. The problem of corruption. – The Other Press, 2015.
8. Uslaner E. M. Political trust, corruption, and inequality //Handbook on political trust. – Edward Elgar Publishing, 2017. – C. 302-315.
9. Niyozova, S.S. Korruptsiyaga qarshi kurashishda komplayens nazorat tizimi [Matn]: o'quv qo'llanma / Niyozova Salomat Saparovna. - T.: TDYU nashriyoti, 2025. - 132 b.
10. Iskandarov B. O'zbekistonda korruptsiyaga qarshi kurash mexanizmlari //Modern Science and Research. – 2025. – T. 4. – №. 3. – C. 1326-1331.
11. United Nations. Convention against Corruption. New York: United Nations, 2003. 37 p. URL: https://www.unodc.org/documents/brussels/UN_Convention_Against_Corruption.pdf

12. <https://www.coe.int/en/web/greco/publications>
13. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza (2024-yil) - <https://aca.uz/storage/WY8ObPjgaahp6EPE7UapMNRGixt2jf-meta0JzQuNC70LvQuNC5INCC0LDRitGA0YPQt9CwIDlwMjQucGRm-.pdf>
14. Ахмедов И. Б. Коррупцияга қарши курашиш юртимиз ижтимоий ҳаётининг долзарб муаммоларидан бири //Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Т. 3. – №. 4-3. – С. 67-71.
15. <https://www.transparency.org/en/news/cpi-2023-eastern-europe-central-asia-autocracy-weak-justice-systems-widespread-enabling-corruption>

